



AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH MASALALARI

Bozarova Gulnora Gulamovna

UNIVERSITY OF EKONOMIKS AND PEDAGOGY

NOTM Iqtisodiyot va ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti,

Andijon sh. O'zbekiston

Annotation: *This article describes the measures to prevent poverty, the scientific basis of creating a permanent source of income for families and the development of small business, and the reforms being implemented in this regard.*

Key words: *poverty, entrepreneurship, family business, source of income, employment, unemployment, questionnaire.*

Dunyo bo'yicha kambag'allik – yirik muammolardan biri bo'lib, uning sabab va oqibatlari birgina davlatning yechimi bilan cheklanmaydi. Kambag'allik va uning oqibatlaridan aziyat chekadigan aholi qatlamlarining turmush darajasini oshirish va hayotini barqarorlashtirish, zaruriy shart-sharoitlar bilan ta'minlash borasidagi harakatlar dunyo hamjamiyati diqqat markazidagi dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

2020 yilning 24 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida muhtaram Prezidentimizning eng nufuzli minbarda ilk marotaba sof ona tilimizda yangragan nutqlari ayni paytdagi dunyo voqeyligini real aks ettirgani, keltirilgan tahlil va takliflar o'z asosiga ega ekanligi bilan jozibadordir.

Zotan, Davlatimiz rahbari o'z nutqlarida "Tobora tashvishli ohang kasb etayotgan qashshoqlikning ovozi butun dunyo hamjamiyatini, barchamizni bezovta qilishi zarur" deb ta'kidladilar. Bu bejiz emas, albatta. Binobarin, davlatimiz rahbari tomonlaridan kambag'allikni qisqartirish masalasini global miqyosda olib chiqilishi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

Birinchidan, BMT, Jahon banki kabi qator xalqaro tashkilotlari so'nggi 30 yil mobaynida global miqyosda kambag'allikni qisqartirish borasida ijobiy natijaga ega bo'lib, ularda yetarli tajriba va yo'nalishlar bazasi shakllandi.

Kambag'allikni qisqartirish muammosi aynan iqtisodiy-moliyaviy imkoniyatlari nisbatan cheklangan hamda institutsional bazaning yetarli darajada rivojlanmagan mamlakatlarda kuzatiladi. Shu sababli, mazkur xalqaro tashkilotlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'rsatilayotgan moliyaviy va amaliy ko'mak kambag'allikni qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, global tus olgan koronavirus pandemiyasi butun dunyoda nafaqat kambag'allik, balki qashshoqlik darajasining oshib ketishi xavflarini kuchaytirmoqda.

Umuman olganda, dunyoda kambag'allik darajasining oshib ketishi:



(a) yangi turdagi (yoki boshqa) yuqumli kasalliklarning avj olishi va keng tarqalishiga:

(b) odamlarning moddiy ahvoli yoki inson kapitalining yomonlashuvi oqibatida qator mamlakatlarda rivojlanish istiqbollarinin salbiy tomonga o'zgarishi, ularda nobarqarorlik xatarlarining kuchayishi va ushbu muammolarning global tus olishiga olib kelishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, O'zbekistonda kambag'allik darajasida bo'lganlar mamlakatimiz jami aholisining taxminan 12-15 foizini, ya'ni, 4-5 mln. kishini tashkil etmoqda. Bu 4-5 mln. aholining bir kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan oshmaydi, ayniqsa, bir oilada mashina ham, chorva ham bo'lgani bilan, oila daromadining kamida 70 foizi shu oilada biror kishi og'ir kasal bo'lganda, uni davolatishga sarflanadi. Bunday muammolarni hal etishga, umuman iqtisodiy taraqqiyotga erishish bo'yicha munosabatlarni tartibga soluvchi tizimni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2020 yil 26 martdagi "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4653- sonli Qaroriga muvofiq O'zbekiston Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi sifatida qayta tashkil etildi.

Hozirda mazkur yo'nalishda tizimli, ya'ni, aholi kambag'al qatlamining: doimiy daromad manbaini yaratish; davr talabidan kelib chiqib inson kapitalini rivojlantirish; to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlash kabi ta'sirchan mexanizmlar orqali chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Ammo mazkur muammo bugungi pandemiya sharoitida keskin tus olib, global miqyosda yechimini talab qiladigan masalalar sirasiga aylandi.

Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qashshoqlikni tugatish va kambag'allikka qarshi kurashishni BMT Bosh Assambleyasi navbatdagi sessiyasining asosiy mavzularidan biri sifatida belgilash hamda ushbu masalalarga bag'ishlangan global sammitni o'tkazish taklifi judayam o'rinli va dolzarbdir. Bunda, nazarimizda, eng nozik nuqtalardan biri, bu – dunyoning ko'pgina nuqtalarida notinchlik va jiddiyatlar, ekologik xatarlarning ko'payishi oqibatida dunyo mamlakatlari, xalqlari taqdirining tobora bir-biriga bog'lanib borayotganligiga alohida urg'u berilganligi hamdir.

Bugungi kunda 2021-2030 yillarda O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish strategiyasi ishlab chiqilib, mazkur strategiya ikki bosqichda – qisqa va o'rta (2021-2025 yy.) hamda uzoq (2026-2030 yy.) muddatlarda amalga oshirilishi belgilanmogda. Ushbu bosqichlarda nazarda tutilgan masalalar doirasida quyidagi maqsadli indikatorlarga erishish belgilangan:

- kambag'al aholining ish bilan bandligiga to'liq erishish, bunda bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali yiliga 100 mingdan ortiq ehtiyojmand va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan fuqarolar uchun ish o'rinlarini kvotalash;



- o'zini o'zi band qilish istagida bo'lgan kambag'al aholi qatlamlarining 50 ming nafarini ro'yxatga olish, faoliyatini boshlash, mehnat qurollari sotib olishi va boshqa maqsadlar uchun subsidiyalar ajratish;

- kambag'al aholi qatlamini kasb-hunar, xorijiy til va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish hamda tanlagan yo'nalishi bo'yicha mikro kreditlar ajratish orqali faoliyatini boshlashi yordamida 50 ming nafar kambag'al aholi bandligini ta'minlash.

Axir, chindan ham tiriklik qonuniyati shunday: insoniyat yashashi, mehnat qilishi mumkin bo'lgan yagona makon, bu – Yer Shari, undagi kishilik jamiyatining asosiy maqsadi esa bitta – Tinch, Xotirjam, Farovonlikda umrguzaronlik qilishdir.

Iqtisodiyotda resurslar ko'payib qolishi uchun qo'shimcha qiymat yaratilishi kerak. **Qo'shimcha qiymat yaralishi uchun insonlar o'zlarining mehnatlari mevasi o'zlarining qo'lida ekanligiga qog'ozda emas, haqiqatda ishonch hosil qilishlari talab etiladi.** Boshqacha qilib aytsak, mulk dahlizligi ta'minlangan, ochiq raqobat va erkin savdo mavjud bo'lgan, qonundan ustuvor va noformal tartiblar bo'lmagan, kelishmovchiliklar adolatli va professional sud orqali hal bo'ladigan jamiyatlarda insonlar o'zlarining mehnatlarini mevasi o'zlarini qo'lida ekanligiga ishonishadi. Ya'ni ana shunday jamiyatda qo'shimcha qiymat yaratiladi. Bizda ham shunday bo'lishi uchun hamma biladigan institutsional islohotlarni amalga oshirish talab etiladi.

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish uchun nimalarga e'tibor qaratilmoqda?

O'zbekiston uchun 2020-yil nafaqat pandemiya sababli, balki mamlakat tarixida ilk bor kambag'allik tushunchasi davlat rahbari darajasida e'tirof etilib, mazkur yo'nalish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy kun tartibiga aylangani bilan alohida e'tiborga molik. "Daryo"

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan hamkorlikda mamlakatda ushbu yo'nalishda qilingan ishlar va istiqboldagi rejalar haqida hikoya qiladi.

O'zbekistonda 2020-yilda kambag'allikni qisqartirish vositalarining quyidagi asosiy strategik yo'nalishlari amaliyotga joriy etildi.

Birinchidan, O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning institutsional asoslari yaratilib, kambag'allikni qisqartirish masalalarini muvofiqlashtiruvchi vazirlik hamda ushbu yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy markaz tashkil etildi.

O'tgan davr mobaynida mamlakatda bevosita kambag'allikni qisqartirish borasida xalqaro tashkilotlar (BMT Taraqqiyot dasturi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, YUNISEF va boshqalar), moliyaviy institutlar (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki) hamda ushbu yo'nalishda ilg'or tajribaga ega mamlakatlar ilmiy markazlari (Xitoy Kambag'allikni qisqartirish xalqaro markazi) bilan mustahkam aloqalar o'rnatildi.

Ikkinchidan, pandemiya sharoitida ehtiyojmand aholini moddiy va nomoddiy qo'llabquvvatlash maqsadida joylardagi to'rtta sektor, mahalla organlari, keng



jamoatchilik vakillari hamda deputatlar bilan birgalikda kambag'al va moddiy yordamga muhtoj oilalar ro'yxati — "Temir daftar" tizimi tashkil etildi.

Mazkur tizimning shaffofligini ta'minlash, ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'irlashgan va sektor rahbarlari tomonidan alohida nazoratga olingan oilalarni qayd etishga mo'ljallangan saxovat.uz dasturi ishga tushirilib, oilalarning mehnatga layoqatli ishsizlari bandligini ta'minlash orqali ularga daromad manbai yaratishning "Vaqtinchalik tartibi" tasdiqlandi. Mazkur ro'yxat quyidagi mezonlar asosida shakllantirildi:

- oilada mehnatga layoqatsiz nogironlar va surunkali kasallikka chalingan a'zolarining mavjudligi;
- oilaning yakka-yolg'iz keksalar, beva va o'zgarlar qaramog'iga muhtoj kam ta'minlanganlardan iboratligi;
- besh va undan ko'p farzandi bor oilalar;
- koronavirus pandemiyasi sababli qo'llanilgan karantin choralari natijasida o'zining daromad manbaini yo'qotgan, biroq "temir daftar"ga kiritilmay qolgan oilalar;
- oilaning haqiqatda ehtiyojmand, nochor va moddiy ko'makka muhtojligi.

Respublika miqyosida "temir daftar"ga 594,3 ming oila va ularning 2,5 million nafar a'zosi, shundan 648,0 ming nafar mehnatga layoqatli ishsiz oila a'zolari kiritilib, 2021-yil 1-mart holatiga 641,3 ming nafarining (99 foizi) bandligi ta'minlangan. Ularning:

- 23,2 ming nafari oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida;
- 6,5 ming nafari hunarmandchilik asosida; □ 50,4 ming nafari jamoat ishlarida;
- 294,2 ming nafari o'zini-o'zi band qilishda;
- 19,9 ming nafari investitsiya loyihalaridagi ish o'rinlarida;
- 79,7 ming nafari qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqqan yerlarni
- ajratish va kooperativlarga birlashtirish hisobiga;
- 36,8 ming nafari Davlat investitsiya dasturi obyektlari va uy-joy qurilishiga qamrab olish orqali bandligi ta'minlangan.

Kam ta'minlangan oilalarning daromad manbaini yaratish orqali respublika bo'yicha 1mart holatiga 515,9 ming oila va ularning 2,2 million nafar a'zolari "temir daftar" ro'yxatidan chiqarilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 30-iyuldagi 6038-son farmoni bilan "Temir daftar"dagi haqiqatda muhtoj, nochor va ehtiyojmand oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida:

- dastlab, 2020-yilgi Qurbon Hayiti arafasida "Temir daftar"ga kiritilgan
- 182 mingdan ortiq oilaga 154 milliard so'm moddiy yordam ajratildi;
- keyingi bosqichda, 2020-yil avgust oyida jami 280 ming oilaga jon boshiga 220 ming so'mdan 258 milliard so'm bir martalik moddiy yordam ajratildi;
- tez tibbiy yordam brigadalarining 41 mingdan ortiq xodimlariga bir martalik pul mukofotlari uchun 141 milliard so'm mablag' ajratildi.



Shu bilan birga, keksa yoshdagi hamda nogironligi bo'lgan shaxslarni moddiy qo'llabquvvatlash maqsadida 2020-yil 1-sentabrdan boshlab pensiyalar, bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslarga, zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqalar miqdori 10 foizga oshirildi.

Bundan tashqari, moddiy yordam va ko'makka muhtoj, "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning 16 yoshga to'lmagan bolalariga, nogiron va boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi yoki nafaqasini oluvchi oilalarning 16 yoshga to'lmagan jami 845 ming nafardan ortiq bolalarning har biriga 500 ming so'mdan jami 422 milliard so'm bir martalik yordam to'lovlari to'lab berildi.

Hozirgi kunga qadar "Temir daftar"ga kiritilgan 600 mingga yaqin ehtiyojmand oilalarga jami 1,37 trillion so'mlik to'g'ridan-to'g'ri moddiy va nomoddiy yordamlar ko'rsatildi.

Bunda jahon tajribasida keng qo'llaniladigan kambag'al oilalarning doimiy daromad manbaini yaratish, inson kapitali sifatini oshirish hamda to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlash kabi uch vositadan foydalanilmoqda.

Shu bilan birga, o'tgan yilda ijtimoiy ko'makka muhtoj va kam ta'minlangan oilalarga nafaqa va moddiy yordam ajratish qamrovi oshirildi. Jumladan, bola parvarishi uchun nafaqa va moddiy yordam oluvchi oilalar soni o'tgan yil yakunida yil boshiga nisbatan ikki baravarga, ya'ni 600 ming nafardan 1,2 million nafargacha oshirildi.

Uchinchidan, Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi kabi xalqaro tashkilotlarning taklif va tavsiyalari asosida aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish choralari ko'rilmogda. Mazkur uslubiyot O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishda muhim dastaklardan biri bo'lib, ijtimoiy standartlarni belgilashda foydalaniladi.

To'rtinchidan, o'rta va uzoq muddatlarda kambag'allikni qisqartirishning strategik maqsadlarini belgilash maqsadida, Jahon banki va BMT Taraqqiyot Dasturi ekspertlari bilan birga "2021—2030-yillarga qadar O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish strategiyasi" loyihasi ishlab chiqilib, umumxalq muhokamasiga qo'yildi.

Hujjatda respublikada kambag'allikni qisqartirish uchun kompleks yondashilib, quyidagi ustuvor yo'nalishlar doirasida chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda:

- ehtiyojmand aholiga ko'rsatiladigan yordam va xizmatlar turini ko'paytirish hamda sifatini yaxshilash orqali mavjud tizimni yanada takomillashtirish;
- aholi ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy muhofaza qilishning yangi usul va mexanizmlarini doimiy takomillashtirib borish orqali kambag'allik darajasini yanada qisqartirish;



- aholi ehtiyojmand qatlamining sifatli va uzluksiz ta'lim olish imkoniyatlarini oshirish orqali inson kapitalini rivojlantirish hamda sog'liqni saqlash xizmatlaridan to'liq foydalanishiga erishish;

- hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarida foydalanilmayotgan yangi resurslarni ishga tushirish orqali kambag'al aholi, ayniqsa ayollar va yoshlar bandligini oshirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

- hukumat tomonidan davlat va nodavlat tashkilotlarining bevosita kambag'allikni qisqartirish borasidagi faoliyati hamda amalga oshiriladigan choratadbirlar samaradorligini ta'minlash;

- hududlarda kambag'al aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilash, kommunal xizmatlar, muhandislik infratuzilma obyektlaridan foydalanish darajasini oshirish.

2021-yilgi Davlat dasturida iqtisodiyotni rivojlantirish, shu jumladan kambag'allikni qisqartirish va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sish poydevorini yaratishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan. **Jumladan:**

a) ishsiz a'zolari bor bo'lgan hamda "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan oilalarga dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun 2021-yil 1-iyuldan boshlab:

- dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun yangi o'zlashtirilgan, lalmi, foydalanilmayotgan yer maydonlaridan 10 sotixdan 1 gektargacha yer ajratilishi;

- ajratilgan yer maydonlari sug'orish tizimi (artezian quduqlar, tomchilatib sug'orish va boshqalar) hamda elektr energiyasi bilan ta'minlanishi;

- berilgan yerlarni o'zlashtirish uchun (yer haydash, urug'-ko'chat xarid qilish va boshqalar) subsidiya ajratilishi belgilab berilgan.

Shu bilan birga, 2021-yil 1-aprelga qadar har bir tumanning imkoniyati va rivojlanish yo'nalishidan kelib chiqib ehtiyojmand oilalarga dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun ko'maklashish tizimini yo'lga qo'yish vazifasi ko'zda tutilgan edi.

b) Yana bir muhim jihat shundan iboratki, tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilish faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan ishsiz, shu jumladan "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolarga faoliyatini boshlash uchun kerak bo'lgan asbobuskuna, mehnat qurollari xarid qilish uchun 7 million so'mgacha subsidiyalar ajratilishi amaliyoti yo'lga qo'yilib, bu orqali mazkur aholi qatlamlari biznes uchun dastlabki kapital bilan ta'minlanadi.

v) O'zbekiston tarixida ilk marotaba milliy kambag'allik chegarasi — Aholining minimal iste'mol xarajatlarini e'lon qilish amaliyoti yo'lga qo'yilib, mazkur ko'rsatkichdan ijtimoiy siyosatni yuritishning samarali instrumenti sifatida foydalaniladi. Shu bilan birgalikda, ijtimoiy kafolatlarni bir tizimga keltirilib, ular bosqichma-bosqich minimal me'yorlar darajasiga yetkaziladi.

g) Kambag'allikni qisqartirish borasida hududlardagi haqiqiy holatga baho berish, amalga oshirilayotgan ishlar ijrosini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha 2020-yilda boshlangan ishlar mantiqan davom ettiriladi. Xususan, har bir tuman va shahar hokimi o'z hududida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha manzilli



dasturni ishlab chiqib, uning ijrosi bo'yicha har chorakda mahalliy Kengashlar hamda ommaviy axborot vositalari orqali xalqqa hisobot berib borish tizimi joriy etiladi. Alohida ta'kidlab o'tish joizki, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar samarasini Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining hokimlar faoliyatiga baho berish reytingiga integratsiya qilinadi.

d) Ishsiz fuqarolar, kambag'al oila a'zolariga ularning bandligini ta'minlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida berilayotgan moddiy yordam va subsidiyalar samaradorligini oshirish maqsadida mutlaqo yangicha tizim — ijtimoiy shartnoma tizimi joriy yildan boshlab amaliyotga tadbiiq etiladi. Mazkur tizim orqali:

- ishsiz, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga bandligini ta'minlash va moddiy ko'mak berish maqsadida ajratilayotgan subsidiya, grant, nafaqa va boshqa to'lovlardan foydalanish bo'yicha fuqaroning majburiyatlari belgilab beriladi;

- fuqaroning ijtimoiy shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish ustidan monitoring tizimi o'rnatiladi va davlatdan yordam olgan fuqaroning "shaxsiy profili" yaratiladi;

- ijtimoiy shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajargan fuqarolarni rag'batlantirish, bajarilmagan holatlarda esa ularning ijtimoiy mas'uliyati belgilanadi;

- ijtimoiy shartnoma tizimi tajriba tariqasida sinovdan o'tkazilib, natijalari bo'yicha respublikaning barcha tuman (shahar)larida tatbiiq etiladi.

e) 2021-yilda kambag'al va ishsiz fuqarolarni doimiy daromad manbai bilan ta'minlash va mehnat faolligini oshirish maqsadida ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish tizimi to'liq joriy etilib, o'qishga jalb qilingan fuqarolar qamrovi kengaytiriladi. Ushbu maqsadlarda qator amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Jumladan, unda:

- 70 ming nafar ishsiz fuqaroni 40 turdagi kasb-hunarga o'qitish;

- 39,6 ming ishsiz fuqaroni tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish;

- 50 ming fuqaroni tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi uchun chet tillariga o'qitish;

ADABIYOTLAR:

1. Мир, достоинство и равенство на здоровой планете. Ликвидация нищеты. ООН // <https://www.un.org/ru/global-issues/ending-poverty>

2. Мировые тенденции развития предпринимательской деятельности в экономике зарубежных стран. <https://articlekz.com/article/15307>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi PQ-4653-sonli qarori.

4. Tadbirkorlikni rivojlantirish va kasbga o'qitish orqali kambag'allikni kamaytirish choralari belgilandi. <https://uznews.uz/uz/article/29424/>



5. Eraliev A.A. Роль женщин - девушек в развитии малого бизнеса.
<https://nauchnyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/2537>